razga asos beradi; fantastik faraz syujet harakatini yuzaga chiqaradi; badiiy to‘qima bu hodisalarni insoniy mazmun bilan birlashtiradi. Natijada o‘quvchi ongida ichki mantiqqa ega badiiy olam vujudga keladi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy fantastika ilm-fan yutuqlarini badiiy tarzda bayon qiladigan adabiyot emas; u ilmiy tafakkur vositasida inson, jamiyat va borliqning ehtimoliy holatlarini badiiy tadqiq etadigan janrdir. Uning janr chegarasi esa qat’iy belgilar yig‘indisi bilan emas, ilmiy tafakkur, fantastik tasvir va badiiy to‘qimaning asar ichidagi o‘zaro munosabati bilan belgilanadi. Bunday munosabat o‘quvchida shuuriy ishonchni yuzaga keltirganidagina fantastik faraz oddiy xayoliy hodisadan badiiy voqelikka aylanadi. Ana shu nazariy asos keyingi tadqiqotlarda ilmiy fantastikaning fantastik narrativi va badiiy to‘qima bilan munosabati, shuningdek, ushbu munosabatning sujet va obrazlar tizimida qanday namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бритиков А.Ф. Отечественная научно-фантастическая литература (1917–1991 годы). Кн. 1: Научная фантастика – особый род искусства. М., 2005, 308 с.

(2). Чернышева Т.А. Природа фантастики. Иркутск, изд-во Иркутского университета, 1984, 336 с.

(3). Csicsery-Ronay I. Jr. The Seven Beauties of Science Fiction. Middletown, Wesleyan University Press, 2008, 323 p.

(4). Ибрагимова Р.М. Ўзбек фантастикасида услубий изланишлар. Тошкент, “Фан”, 1987, 92-бет.

(5). Karim B. Ruhiyat alifbosi: adabiy-ilmiy maqolalar. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018, 364-bet.

(6). Ковтун Е.Н. Поэтика необычайного: художественные миры фантастики, волшебной сказки, утопии, притчи и мифа. М., изд-во Московского университета, 1999, 308 с.

(7). Rieder J. On Defining SF, or Not: Genre Theory, SF, and History // Science Fiction Studies. 2010, vol. 37, № 2, p. 191–209.

(8). Scholes R. Structural Fabulation: An Essay on Fiction of the Future. Notre Dame: University of Notre Dame Press, 1975, 174 p.

(9). Yuldoshova Sh. Fantastik nasrda badiiy motivning adabiy-estetik funksiyasi (Rey Bredberi va Isajon Sulton ijodi misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2025, 24-bet.

(10). Obidjonova M. Ingliz va o‘zbek adabiyotida ilmiy fantastikaning narratologik asoslari. Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari. 2025, vol. 1, 1-son.

Qodirjonova Iqbola Bahodir qizi (Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi (PhD); nizamovaiqbola@yandex.com)

BOLA OBRAZINI YARATISHDA ICHKI MONOLOG VA ONG OQIMI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bola obrazini badiiy talqin qilishda ichki monolog hamda ong oqimi uslubining qo‘llanilishi o‘zbek va anglo-amerika adabiyoti misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Bola psixologiyasini chuqur va ishonarli aks ettirish zamonaviy bolalar nasrining muhim badiiy vazifalaridan biri bo‘lib, bu borada milliy va jahon adabiyotshunosligidagi tajribalarni qiyoslash orqali yangi nazariy xulosalar chiqarish imkoniyati mavjudligi tadqiqot dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqot natijasida o‘zbek va anglo-amerika yozuvchilarining asarlarida ichki monolog va ong oqimi usullarining o‘ziga xos badiiy funskiyalari, o‘xshash hamda farqli jihatlari aniqlanadi. Maqoladan olingan xulosalarning ilmiy ahamiyati bola obrazi tipologiyasini boyitishda, amaliy ahamiyati bolalar adabiyoti va adabiyot nazariyasi fanidan o‘quv materiali sifatida foydalanilishi mumkinligida namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *bola obrazi, o‘zbek adabiyoti, anglo-amerika adabiyoti, ong oqimmi, ichki monolog, qiyosiy adabiyotshunoslik, badiiy-estetik tafakkur.*

Кодиржонова Икбола Баходир кизи (Ташкентский Международный университет Химии, старший преподаватель (PhD); nizamovaiqbola@yandex.com)

ВНУТРЕННИЙ МОНОЛОГ И ПОТОК СОЗНАНИЯ ПРИ СОЗДАНИИ ОБРАЗА РЕБЁНКА

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ применения приёмов внутреннего монолога и потока сознания при художественной интерпретации образа ребёнка на материале узбекской и англо-американской литературы. Актуальность исследования обусловлена тем, что глубокое и достоверное отражение детской психологии является одной из важных художественных задач современной детской прозы, а сопоставление национального и мирового литературоведческого опыта открывает возможности для новых теоретических выводов в данной области. В результате исследования выявлены специфические художественные функции, а также сходства и различия приёмов внутреннего монолога и потока сознания в произведениях узбекских и англо-*

американских писателей. Научная значимость выводов, полученных в статье, заключается в обогащении типологии образа ребёнка, практическая значимость – в возможности их использования в качестве учебного материала по детской литературе и теории литературы.

Ключевые слова: *образ ребёнка, узбекская литература, англо-американская литература, поток сознания, внутренний монолог, сравнительное литературоведение, художественно-эстетическое мышление.*

Kodirjonova Iqbola Bahodir qizi (Kimyo International University in Tashkent Senior Lecturer, PhD; nizamovaiqbola@yandex.com)

INNER MONOLOGUE AND STREAM OF CONSCIOUSNESS IN CREATING THE IMAGE OF A CHILD

Annotation. *This article presents a comparative analysis of the use of inner monologue and stream of consciousness techniques in the artistic interpretation of the image of a child, based on Uzbek and Anglo-American literature. The relevance of the study is determined by the fact that a deep and authentic representation of children's psychology is one of the important artistic tasks of modern children's prose, and comparing national and world literary experience opens opportunities for drawing new theoretical conclusions in this field. As a result of the study, the specific artistic functions, as well as the similarities and differences, of inner monologue and stream of consciousness techniques in the works of Uzbek and Anglo-American writers were identified. The scientific significance of the conclusions drawn in the article lies in enriching the typology of the child's image, while their practical significance lies in the possibility of using them as educational material in children's literature and literary theory.*

Keywords: *child image, Uzbek literature, Anglo-American literature, stream of consciousness, inner monologue, comparative literary studies, artistic-aesthetic thinking.*

Kirish. Muammo. Bola – badiiy adabiyotda yoritilishi eng qiyin bo‘lgan obrazlardan biri. Chunki u kattalarga o‘xshab fikrlamaydi, uning xarakatlari, his-tuyg‘ulari tartibsiz, uning hayotida yuz berishi mumkin bo‘lgan turli hodisalar ham kutilmagan natijalarga olib keladi. Bolalar haqidagi asarlar o‘zaro teng bo‘lmagan ikki subyektivlik – voyaga yetgan muallif va bola qahramon o‘rtasidagi dialogik taranglik asosida quriladi.[1] Shu sababli har qanday yozuvchi, qaysi tilda, qaysi millat yoki davr haqida yozmasin, bir savol oldida o‘ylanib qoladi: bolaning ichki dunyosini, ichki kechinmalarini qanday qilib tabiiy va hayotiy tarzda qog‘ozga tushirish mumkin? Garchi barcha ijodkorlar bir vaqtlar bola bo‘lgan bo‘lsalar-da, **hayotiy tajriba hamda til ko‘nikmalaridagi chuqur tafovut** (voyaga yetgan) narrativ ovoz bilan fokus markaziga olingan bola qahramonning hamda yosh kitobxonning **idrok va tushunish darajalari o‘rtasida muqarrar nomuvofiq-lik**ni yuzaga keltiradi.[2] XX asr yozuvchilari bu savolga ikki xil javob topdilar – ichki monolog va ong oqimi (stream of consciousness). Har ikki usul ham qahramonning miyasidagi fikr va harakatlarini so‘z bilan ifo-dalashga urinadi, lekin ular ayni bir xil narsa emas.

Qahramonning ichki dunyosini aks ettirishga bo‘lgan intilish G‘arb va Sharq adabiyotida nisbatan so‘nggi yillarda tadqiq qilinayotgan muammolardan biri bo‘lib, ko‘pincha, Genri Jeyms va Virjiniya Vulf nomlari bilan bog‘lanadi. Bolalar adabiyotida esa ushbu tendensiya faqat so‘nggi 20–30 yil ichida sezilarli darajada ommalashdi. Mixail Baxtinning terminologiyasi ushbu hodisani tushuntirishga yordam beradi. Bu epik tasvirdan polifonik diskursga, ya’ni, asosan, voqealarning tashqi rivojini tasvirlashdan inson ongining murakkab tabiatini ifodalashga o‘tishdir.[3]

Jahon adabiyotshunosligida bu ikki texnikani, ko‘pincha, kattalar ongi, ayniqsa og‘ir ruhiy holatlar misolida tahlil qilib kelgan. Jeyms Joys, Virjiniya Vulf, Folkner haqida gapirganimizda deyarli har doim shu mavzuda tilga olinadi. Lekin bir masala ancha vaqtdan beri adabiyotshunoslar e’tiborida: bu texnikalar aynan bola ongini tasvirlashda qanday ishlaydi? Bu jihatdan, o‘zbek hamda anglo-amerika adabiyoti qanday nisbatda turadi? Bu savolga to‘liq javob haligacha topilgani yo‘q, chunki mavjud tadqiqotlar ko‘proq bitta an’ana doirasida qolib ketadi, ikkalasini yonma-yon qo‘yib ko‘rmaydi. Fikrimizcha, g‘arb hamda sharq bolalar adabiyoti bir-biriga qarshi qo‘yiladigan ikki dunyo emas, balki bitta muammoni – bola ongini qanday tasvirlash kerak degan muammoni turlicha hal qiladigan ikki yo‘l. Albatta, ikki adabiyot doirasida

[1] Nikolajeva M. Imprints of the Mind: The Depiction of Consciousness in Children’s Fiction. Children’s Literature Association Quarterly. 2001, vol. 26, № 4, p. 173–187. DOI: 10.1353/chq.0.1496.

[2] Hunt P. Childist Criticism: The Subculture of the Child, the Book and the Critic. Signal. 1984, № 43, p. 42–59; Stephens J. Language and Ideology in Children’s Fiction. London, Longman, 1992.

[3] Bakhtin M. Epic and Novel. The Dialogic Imagination: Four Essays by M.M. Bakhtin / ed. by M.Holquist; trans. by C. Emerson M. Holquist. Austin: University of Texas Press, 1981, p. 3–40.

o‘zaro tafovutlar mavjud, lekin bu farq kamchilik emas, balki har bir madaniyatning o‘z tili va o‘z tafakkur usuli bilan bog‘liq tabiiy natija.

Maqsad va vazifalar. Ushbu maqoladagi tadqiqot maqsadi anglo-amerika va o‘zbek bolalar adabiyotida ichki monolog va ong oqimi qanday ishlashi, bola obrazini yaratishda ular qanday vazifa bajarishi, bu ikki badiiy olam qayerda kesishishi va qayerda ajralishini aniqlashdan iborat. Buni amalga oshirish quyidagi vazifalar o‘rtaga qo‘yiladi:

1. Ichki monolog bilan ong oqimi o‘rtasidagi farqni aniq chizib berish, ayniqsa, bola ongiga nisbatan.
2. Luiza Fitshyu, Robert Kormye, Devid Almond, Meg Rozoff asarlaridagi bola tasvirini yaqindan o‘rganish.
3. G‘afur G‘ulom, Oybek, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Anvar Obidjon asarlarida bola ichki nutqi qanday shaklda kelishini tahlil qilish.
4. Ikki an’ananing farqini nima belgilashini – til, madaniyat, dunyoqarashni – aniqlash.
5. Bugungi o‘zbek bolalar adabiyoti uchun bu tajribadan nima olish mumkinligi haqida fikr yuritish.

Metodologiya. Ushbu kichik tadqiqotda qo‘llaniladigan asosiy usul–qiyosiy-tipologik usul. Bu yerda “kim kimdan andoza olgan” degan savol, umuman, qo‘yilmaydi. Chunki tadqiqot doirasidagi ikki adabiyot deyarli bir-biridan mustaqil rivojlangan va ular orasida to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir izlashning ilmiy qiymati kam. Bizni qiziqtiradigan narsa – tipologik parallellik: bir xil badiiy muammo ikki xil badiiy makonda qanday ko‘riladi, ya’ni, bir xil urug‘ turli tuproqda qanday mevalar beradi. Bundan tashqari, matnni so‘z-so‘z, jumla tuzilishi darajasida tahlil qilinadi–bu badiiy tahlil usuli. Kerak bo‘lgan joyda psixologiyaga ham murojaat qilamiz, chunki ichki nutq – bu, oxir-oqibat, ong haqidagi masala.

Manba sifatida Luiza Fitzhyuning «Harriet the Spy»; Devid Almondning – «Skellig» va «Kit’s Wilderness»; Meg Rozoffning – «How I Live Now» asarlari olindi.

O‘zbek adabiyotidan – G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, Oybekning “Bolalik” qissasi hamda Xudoyberdi To‘xtaboyev va Anvar Obidjon ijodidagi bola obrazlarini ham qisqa yoritamiz.

Ichki monolog va ong oqimi: nazariy farqlari. Ichki monolog – bu qahramonning o‘zi bilan tinch suhbati. Unda grammatika saqlanadi, fikr chiziqli boradi, o‘quvchi uni tushunishda qiynalmaydi. “Ichki monologda qahramon o‘zining sirli, yashirin fikrlarigacha aytadi. Shu boisdan ichki monolog orqali qahramon kitobxon oldida o‘zini namoyon qiladi. Natijada uning shaxsiyatida hech narsa sirli yoki tushunarsiz bo‘lib qolmaydi. Odatda, ichki monologlarda qahramon hayotining eng keskin momentlari ifodalanadi”[1]. Ong oqimi esa boshqacha ishlaydi: bu yerda tartib yo‘q, tinish belgilari ba’zan yo‘qoladi, bir fikr tugamasdan ikkinchisi bostirib kiradi, xotira va hozirgi lahza bir-biriga chirmashib ketadi. Adabiyotshunos T. Jo‘rayev ong oqimini badiiy-estetik tafakkurning taraqqiyot bosqichi, ijodiy yo‘nalish, uslub deya baholagan.[2] Buni quyidagicha tushuntirish mumkin: ichki monolog – bu tozalab yozilgan qoralama, oqim-ong esa qoralamaning o‘zi, tuzatilmagan holatda tasvirlash.

Nega bu farq bola obrazi uchun muhim? Chunki bola aynan shunday – tartibsiz fikrlaydi. Kattalar dunyosining mantig‘i unga hanuz singib ulgurmagan. Shu sababli ong oqimi bolaning ongiga, nazarimizda, ichki monologdan ko‘ra ko‘proq mos keladi, garchi bu ikkalasi ham teng darajada ishlatilishi mumkin bo‘lsa-da.

Anglo-amerika adabiyoti: bola va oqim ong. Modernizm bu texnikani XX asr boshida kashf etdi, va tez orada u bolalikni tasvirlash uchun ajoyib qurolga aylandi. Fitzhyu “Harriet josus” asarida bolaning ongini kundalik daftar orqali ochib beradi.[3] Unda ichki nutq xom holicha, filtrlanmagan, ayovsiz hukm chiqaruvchi shaklda yetqaziladi. Harriet dunyo haqidagi fikrlarini qog‘ozga tushirar ekan, uning qalami orqali biz bolaning shafqatsiz, ammo xolis kuzatuv nigohini ilg‘aymiz. Bu ichki monologni bayon qilinishining, ya’ni, bolaning fikrini qog‘ozga “ko‘chirib” berishning ajoyib namunasi, biz buni bolalar adabiyotidagi psixologik odillikning muhim yutug‘i deb hisoblaymiz.

Almond esa boshqacha yo‘l tanlaydi. Uning Maykl (“Skellig”) va Kit (“Kit’s Wilderness”) obrazlari real va sirli, hozirgi va o‘tmish o‘rtasida muallaq qolgan qahramonlar. Til bu yerda qisqa, sinkopik, deyarli she’riy jumlalarga bo‘linadi. Unda xotira va tush chegarasi yo‘qoladi. Bu bob o‘qishga yengil tuyulsa-da, aynan shu soddalik ortida chuqur metafizik tashvish yashiringan – Almond o‘quvchini bolaning intuitiv, kattalar unutgan idrokiga sekin-asta yetaklaydi.

---

[1] Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2002, 175-бет.

[2] Жўраев Т. Онг оқими. Модерн. Фарғона, 2009, 47-бет.

[3] Fitzhugh L. Harriet the Spy. L.Fitzhugh. New York, Random House Kids, 1964, 298 p.

Rozoff “Hozir men qanday yashayapman?” (“How I Live Now?”)da[1] o‘smirlik ongini tinish belgilarisiz, uzluksiz, nafas qaytarmay oqib boruvchi jumlalar orqali beradi. Bu yerda texnika keskinroq, deyarli isyonkor: Deyzining ovozi kinoyali va zaif, bir vaqtning o‘zida, urush va ochlik uning ongini tinimsiz uzib-yopishtirib turadi. Buni zamonaviy o‘smirlar adabiyotidagi ong oqimiga eng yaqinlashgan tajriba deb atash mumkin.

Zamonaviy anglo-amerika bolalar adabiyoti, umuman olganda, bu uch yo‘nalishni – kuzatuv-yozuv (Fitzhyu), lirik-mifopoetik (Almond) va uzuq-yuluq isyonkor (Rozoff) bayon uslublarni o‘ziga xos tarzda meros qilib oladi, biroq ularni yumshatib, bolaning hissiyotini o‘quvchiga tushunarliroq qilib yetkazishga intiladi. Bu, ehtimol, janr talabidan va yosh o‘quvchi ehtiyojidan kelib chiqadi.

O‘zbek adabiyoti: bola va ichki nutq. Bu yerda manzara boshqacha. O‘zbek yozuvchisi Joysga o‘xshab ongni parchalab tashlamaydi. Buning sababini tilning o‘zidan topish mumkin: o‘zbek tili grammatik jihatdan qattiqroq, jumlani “buzish” ingliz tilidagidek oson emas. Yana bir sabab og‘zaki an’ana, ertak va doston merosi, ularda hikoya har doim izchil, boshi-oxiri bor.

Oybek “Bolalik”da bola ongini xotira orqali beradi.[2] Ulg‘aygan muallif bolalikka qaytadi, lekin bu qaytish tartibli, iliq, hissiyotga to‘la. Buzilish yo‘q, faqat samimiylik bor. Buni kamchilik deb hisoblash noto‘g‘ri, bunda boshqacha yo‘l tutilgan, xolos.

G‘afur G‘ulom “Shum bola”da bolani kuzatuvchi qiladi. Uning kichkina qahramoni kattalar dunyosiga nazar soladi va bu dunyoni, ko‘pincha, ayblab qaraydi.[3] Bu ichki monologning ijtimoiy vazifasi. Bu jihatdan, garchi ikkalasi bir-biridan mustaqil yozilgan bo‘lsa-da, u Tvenning Gekelberi Finini eslatadi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev va Anvar Obidjon esa boshqa yo‘l tutadi. Ular xalq tili, mahalliy obrazlar, urf-odatlarni ichki nutqqa olib kiradi. Natijada o‘zbekcha ong oqimi paydo bo‘ladi, lekin u Folknerdan farq qiladi: bu yerda tartibsizlik emas, boylik ustuvor.

Natijalar. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchi: ikki adabiyot ham ichki nutqqa murojaat qiladi, lekin darajasi boshqa. Anglo-amerika tomon ongni butunlay “xomligicha” berishga jur’at etadi. O‘zbek adabiyotida esa muallif nazoratini saqlab qolinadi, bu kamchilik emas, balki, tanlov.

Ikkinchi: vaqt bilan munosabat farq qiladi. Folknerda vaqt yo‘qoladi. O‘zbek nasrida vaqt hamon chiziqli qoladi, xotira ham tartib bilan keladi.

Uchinchi: ikkala adabiyotda ham bola – ayblovchi ko‘z. U kattalar dunyosining nomukammalligini ko‘radi va shuni ko‘rsatadi. Bu madaniyatdan qat’i nazar, takrorlanuvchi badiiy funksiya, va buni tasodif deb hisoblash qiyin.

To‘rtinchi: til hal qiluvchi omil. Ingliz tili sintaksisni buzishga imkon beradi, o‘zbek tili esa bunga qarshilik ko‘rsatadi. Shu sababli o‘zbek yozuvchisi boshqa yo‘l – ichki monolog va lirika – tanlaydi, majburan emas, tabiiy ravishda.

Beshinchi: so‘nggi o‘n besh yilda o‘zbek bolalar adabiyoti asta-sekin ochilib bormoqda. Yosh yozuvchilar endi anglo-amerika tajribasidan qo‘rqmasdan ilhom oladi. Buni ijobiy jarayon deb baholash mumkin, ammo bu ochilish tilni buzish emas, boyitishi kerak.

Xulosa. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin: ong oqimi va ichki monolog raqobatlashadigan usullar emas. Ular bola ongini tasvirlashning ikki qutbi va yozuvchi til, madaniyat, hatto shaxsiy tajriba asosida qaysi qutbga yaqinroq turishini o‘zi tanlaydi. Anglo-amerika adabiyoti radikal tomonga siljidi, o‘zbek adabiyoti esa nazoratli, lirik yo‘lni tanladi. Ikkalasi ham to‘g‘ri, chunki ikkalasi ham bola ongining bir qirrasini ochib beradi. O‘zbek adabiyotshunosligi bu mavzuni hali yetarli o‘rganmagan, bu kelajakdagi ishlar uchun ochiq maydon. Turkiy xalqlar adabiyoti, raqamli davr bolalar matnlari bularning hammasi navbatdagi qadam bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Nikolajeva M. Imprints of the Mind: The Depiction of Consciousness in Children's Fiction. Children’s Literature Association Quarterly. 2001, vol. 26, № 4, p. 173–187. DOI: 10.1353/chq.0.1496.

(2). Hunt P. Childist Criticism: The Subculture of the Child, the Book and the Critic // Signal. 1984, № 43, p. 42–59; Stephens J. Language and Ideology in Children's Fiction. London, Longman, 1992.

(3). Bakhtin M. Epic and Novel. The Dialogic Imagination: Four Essays by M.M.Bakhtin / ed. by M.Holquist; trans. by C.Emerson, M.Holquist. Austin: University of Texas Press, 1981, p. 3–40.

[1] Rosoff M. How I Live Now / M. Rosoff. New York, Wendy Lamb Books, 2004.

[2] Ойбек. Болалик. Тошкент, “Ёш гвардия”, 1963, 274-бет.

[3] G‘ulom G‘. Shum bola: qissa. Toshkent, “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018, 192-bet.

(4). Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2002, 175-бет.
(5). Жўраев Т. Онг оқими. Модерн. Фарғона, 2009, 47-бет.
(6). Fitzhugh L. Harriet the Spy. New York, NY: Random House Kids, 1964, 298 p.
(7). Rosoff M. How I Live Now. New York, Wendy Lamb Books, 2004.
(8). Ойбек. Болалик. Тошкент, “Ёш гвардия”, 1963, 274-бет.
(9). G‘ulom, G‘. Shum bola. Qissa. Toshkent, “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018, 192-bet.

Boboyev Ulash Ne’matovich (SamDCHTI dotsenti, DSc)

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA SHOK-TEYMENT USULLARI TASNIFI VA ULARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqola zamonaviy OAVda shok-teyment hodisasining ilmiy adabiyotlarda kam o‘rganilgan va dolzarb bo‘lgan muammolariga bag‘ishlangan. Maqolaning maqsadi shok-teymentning asosiy xususiyatlarini aniqlash va uning usullari mavjud tasniflarini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot usullari sifatida ilmiy adabiyotlar va OAV yangiliklar materiallarini tahlil qilish, induksiya, deduksiya hamda kompleks tahlil qo‘llanilgan. Muallif xulosasiga ko‘ra, shok-teymentning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: axborotlilik, ko‘ngilochar xarakter, shaklning mazmundan ustunligi, emotsionallik, reytinglarga tijoriy yo‘naltirilganlik, vizual jozibadorlik, fragmentarlik va universallik. Ilmiy adabiyotlarda shok-teyment usullarining yagona tasnifi ishlab chiqilmagan. Biroq turli tasniflar shakllantiriladigan mezonlar mavjud. Muallif shok-teymentni janr yoki formatlarga emas, balki jurnalistika uslublariga kiritishni taklif qiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi muallif tomonidan shok-teyment uslubi usullari uchun ishlab chiqilgan struktur-kompozitsion, mazmuniy va nutqiy mezonlar bo‘yicha tasnifdir.*

Kalit so‘zlar: *shok-teyment, OAV, usullar tasnifi, mezonlar, xususiyatlar.*

Бобоев Улаш Нематович (доцент СамГИИЯ, доктор наук (DSc)

КЛАССИФИКАЦИЯ ПРИЕМОВ ШОК-ТЕЙМЕНТА В СМИ И ИХ ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация. *Статья посвящена актуальной и недостаточно исследованной в научной литературе проблематике шок-теймента в современных СМИ. Целью статьи является выявление основных характеристик шок-теймента и изучение существующих классификаций его приемов. Методами исследования стали: анализ научной литературы и новостных материалов СМИ, индукция, дедукция и комплексный анализ. По мнению автора, основными характеристиками шок-теймента являются: информативность, развлекательность, доминанта формы над содержанием, эмоциональность, коммерческая ориентация на рейтинги, визуальная привлекательность, фрагментарность и универсальность. Единой классификации приемов шок-теймента в научной литературе не разработано. Однако существуют критерии, в соответствии с которыми выстраиваются разные классификации. Автор предлагает относить шок-теймент не к жанрам или форматам, а к стилям журналистики. Научной новизной исследования является разработанная автором классификация приемов стиля шок-теймент по следующей системе критериев: структурно-композиционные, содержательные и речевые.*

Ключевые слова: *шок-теймент, СМИ, классификация приемов, критерии, характеристики.*

Boboyev Ulash Ne’matovich (Associate Professor at SamSIFL (DSc)

CLASSIFICATION OF SHOCK-TAINMENT TECHNIQUES IN MASS MEDIA AND THEIR MAIN CHARACTERISTICS

Annotation. *The article is devoted to the relevant and insufficiently studied issues of the shock-tainment phenomenon in modern mass media in scientific literature. The purpose of the article is to identify the main characteristics of shock-tainment and to study the existing classifications of its techniques. The research methods include the analysis of scientific literature and media news materials, induction, deduction, and comprehensive analysis. According to the author’s conclusions, the main characteristics of shock-tainment are: informativeness, entertainment value, the dominance of form over content, emotionality, commercial orientation toward ratings, visual attractiveness, fragmentation, and universality. A unified classification of shock-tainment techniques has not yet been developed in scientific literature. However, there are criteria according to which various classifications are structured. The author proposes to classify shock-tainment not as a genre or format, but as a style of journalism. The scientific novelty of the research lies in the classification of shock-tainment techniques developed by the author based on structural-compositional, content, and speech criteria.*

Keywords: *shock-tainment, mass media, classification of techniques, criteria, characteristics.*